

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA BILISH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**E.Y.Davletov Urganch DU «Boshlang'ich ta'lim» kafedrası o'qituvchisi,
I.Y.Davletov, Urganch DU professori**

Bilish kompetensiyasini shakllantirishning eng samarali uslublaridan biri dars jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, faol aqliy harakatlarda o'rgatish uchun muammoli vaziyatlarni tashkil etishdir. Bu faollik o'quvchining tahlil qilishida, taqqoslashida, sintez qilishida, shundan yangi ma'lumot olishida ko'rinadi.

Bilish jarayonini amalga oshirish navbatdagi ko'nikma, malakalar uslublaridan foydalanishni taqoza qiladi: maqsadga yo'naltirilgan mexanizmlardan foydalanish, rejalashtirish, tahlil, refleklar, o'z faoliyatini muvaffaqiyatini baholash; manbaa tuzishni aniqlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini sabablarini aniqlash; qiyoslash, taqqoslash, taklif qilingan bir qancha asoslar yoki manbaalarga xos guruhlashtirish; turli uslublardan foydalanish asosida qurshab olgan dunyoni bilish (kuzatish, eksperment, tajriba, modellash kabilari); aniq faktlar, fikrlar, isbotlash, bashorat kabilarni farq qila bilish ko'nikmasi; o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi orqali kompetensiyalarni shakllantirish.

Ta'lim oluvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllanishi yuqorida sanab o'tilganlarni ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, birinchi navbatda dars davomida amalga oshadi. Ishda ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, ko'nikma va malakalarning matematika darslarida qanday shakllanishlari va rivojlanishlarini bilishni isbotlash nazarda tutiladi. Ta'lim oluvchilarda ko'nikmalarini hosil qilishni rivojlantirish uchun sabab – izlanish bog'lanishlar tashkil qilinib navbatdagi shakllardan foydalaniladi: Juft bo'lib «To'g'ri javobni tanla» kartochkasidan foydalaniladi.

Masala yechilishi bilan tanishish uchun navbatdagi uslublardan foydalanib shaxsiy fikrlarni tasdiqlash mumkin: ko'pincha bu uslublar quyidagilardan iborat bo'ladi: masala mazmuni bilan tanishtirish; masala yechimini izlash; masalani yechish; masala yechimini tekshirish.

Klaster uslubini tuzish. Uslub masaladagi umumiylikni ajrata bilishga yo'naltirilgan. Ajratilgan bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog'langan va bu bosqichning har birida ish asosan o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

Masalalarni yechishda o'quvchilar tarqatma materiallarda ko'rsatilgan topshiriqlarni ma'lum tartibda bajarib, masala ustida ishlash malakasini egallaydilar; ularda masalalar ustida ishlashning umumiy uslubi tarkib topadi.

1. Masalani o'qib chiq. Masalada nima haqida gap borayotganini o'zing tasavvur qil.
2. Masalada nima ma'lum va nimani topish kerakligini aniqlashtirib ol. Agar masala matnini tushunib olish qiyin bo'lsa, uni qisqa yoz (yoki masalaga oid chizma tayyorla).
3. Qisqa yozuv bo'yicha har bir son nimani ko'rsatishini tushuntir va masala savolini takrorla.
4. O'ylab ko'r, masala savoliga birdaniga javob berish mumkinmi, agar mumkin bo'lsa, nega? Oldin nimani, keyin nimani bilish mumkin? Masalani yechish rejasini tuz.

5. Yechishni bajar va yoz.

6. O'z yechimingni to'g'riligini tekshirib ko'r.

Klaster texnologiyasi – bu materialni grafik tashkil qilish demakdir, u mavjud bilimlarni tizimlashtirish va uzviylashtirishga imkoniyat yaratadi.

Masala matni yoziladi undan nurlar ko'rsatkichlari tarqaladi, ular u yoki bu tushunchalarni ma'naviy chegarasini ko'rsatadi.

Taqqoslash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, ma'lum asoslantiruvchilar asosida bir qancha jihatlardan foydalanish uslublari orqali manbaalarni guruhlashtirish mumkin:

1) misollar va masalalarda berilgan amallarga qarab, qiyinlik darajasini, turlari kabilarni ifodalash mumkin. Ta'lim oluvchilarga birinchi bosqichda o'qituvchi tomonidan manbaalar taqqoslash uchun tadbiiq qilinadi. Bolalar 3 – 4 – sinfga kelib o'zlari taqqoslash uchun manbaa topadilar.

2) zarur bo'lmagan (ziyod, ortiq, qiyin, oson) so'zlarni topish (taqqoslash uchun misol va masalalar) ko'proq o'zlari mustaqil o'qib o'rganishlari taklif qilinadi.

3) guruhlar bo'yicha taqsimlash (mavsumiy va nomavsumiy qo'shiqlarda, muallifli yoki xalq ertaklarida va turli mualliflar asarlari asosida).

4) munosabat (maqollar va qahramonlarda siymolar xarakter ko'rinishlari kabilarga).

Qurshab olgan muhitni bilib olish uchun mustaqil uslublarni o'rnini aniqlash uchun loyihalash uslubi yoki izlanuvchanlik uslubi asosiy o'rinni egallaydi.

Boshlang'ich sinf matematika ta'limida yuqoridagi kabi bilish kompetensiyalarini shakllantirib borish o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

✎✎✎✎